

*IIV Qashqadaryo akademik litseyi*

*huquq fani o'qituvchisi*

***Negmatov Hasan***

*Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik,  
odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi.*

**Sh.Mirziyoyev**

Ma'naviy muhit - ma'naviyatning muhim tarkibiy qismi. Ma'naviyatning mazmun-mohiyatini ma'naviy muhit tushunchasiz anglab bo'lmaydi. Har qanday qadriyatlar tizimining yuzaga kelishi yoki mavjudlarining o'zgarishi, muhit ta'sirida sodir bo'ladi. Shunday ekan ma'naviy muhit jamiyat a'zolarining umumiy qarashlari, baho va me'yorlariga ta'sir ko'rsatadi, ularni bir xillashtrish, o'rtacha darajada bo'lishiga undaydi. Muhit yoshlar tarbiyasida nihoyatda katta ta'sir kuchiga ega va bu ta'sir ikki holatda (ijobiy va salbiy) bo'lishi mumkin.

Ma'naviy muhit nimani anglatadi? Sobit g'oyalar, qarashlar, axloqiy, huquqiy, estetik, diniy me'yorlar, jamiyat rivojini taqazo etadigan boshqa mafkuraviy talablar ma'naviy muhitni tashkil etadi.

Ma'naviy muhit – jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolot borasida erishgan o'rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablar va ularning amalga oshish tartibidir.

Ma'naviy muhit tushunchasi juda keng qamrovga ega. U jamiyat a'zolari uchun qo'yilgan ma'naviy talablarning umumiy ifodasi sifatida yuzaga keladi, uni targ'ib qiladi va shu asosda ma'naviyatning barcha vazifalarini aks ettiradi. Ammo ayrim hollarda buning o'zi yetarli emas. Individuallashgan, kichik kasbiy yoki guruhviy manfaatlar ifodasi sifatida yuzaga keluvchi muhit - submuhit mavjud. U umumiy muhit ichida paydo bo'ladi va undan alohida yuzaga kelmaydi. Submuhit ma'naviy muhit ichida yuzaga kelganligi bois unga

bo'ysunishga majbur bo'ladi. Submuhit ma'naviy muhitning barqarorlik yoki beqarorlik holatini belgilab bermasada har holda ta'sir etishi mumkin. Submuhit xoslagan muhit bo'lib agar u biryoqlamalik, guruhbozlik kabilarga tayanadigan bo'lsa jamiyat a'zolarini chalg'ishiga sabab bo'ladi.

Submuhit tor doiradagi guruhlarning qiziqish va xoxishlarini, ijtimoiy mo'ljallarini o'zida aks ettiradi, shuning uchun ham uning tarqalish doirasi cheklangan bo'ladi. Submuhit umumiy muhitni talablarini jiddiy o'zgartira olmaydi. Chunki u umumiylikka erisha olmaydi. Shunday bo'lsada uni e'tiborsiz qoldirish kerak degani emas.

Muhit har qanday jamiyatdagi vaziyatni ko'rsatib beruvchi muhim omildir. Jamiyatning ijtimoiy mo'ljallariyu odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati ularning dunyoqarashi olib borilayotgan siyosatga nisbatan munosabati, ishonchi va e'tiqodi bularning hammasi muhit keltirib chiqargan ijtimoiy kayfiyat bilan bog'liq.

Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish uning barqarorligiga erishish muhim masalalardan biridir. Buni bir qator sabablar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, milliy ma'naviyatimiz ko'plab yangi elementlarni qabul qilmoqda. Buning o'zi ham ikki xil ta'sirga ega. Bir tomondan, milliy ma'naviyatimizga zamonaviy ruh baxsh etib uni yangilab, turg'unlik xavfidan qutultiradigan bo'lsa, boshqa tomondan uning ziddiyatli ta'siri ko'plab ko'zga tashlanmoqda. Ikkinchidan, ma'naviy tahdidlar turli usul va vositalar orqali keng tarqalib, uning ta'sir kuchi ortib bormoqda. Uchinchidan, ma'naviy muhitni izdan chiqarish, millatlararo munosabatlarni buzish, turli nizo va nifoqlarni sun'iy ravishda yuzaga keltiradigan guruhlar va ekstremistik harakatlarning bosimi kuchaymoqda.

Aynan uchinchi sabab yoshlarimizning ongu-tafakkurini chalg'ishiga, maqsad-muddaolarini ro'yobga chiqarish jarayonida yangilishib qolishlariga olib kelmoqda. Ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish o'z-o'zidan bo'ladigan, bir-ikki kunda yoki yilda hal bo'ladigan masala emas. Chunki u jamiyat tuzulmasining ko'plab institutlarining o'zgarishi, yangilanishi jarayoni bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya tizimidagi muammolarni hal etmasdan turib ma'naviy

muhitda barqarorlikga erishish mumkin emas. Barkamol shaxsni tarbiyalash jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish oiladan boshlanib ijtimoiy-ma'naviy muassasalar faoliyatini to'liq qamrab olishi zarur.

Insoniyat taraqqiyoti hamisha o'zini o'rab turgan olamni o'rganishga, o'zgartirishga va oqibat o'zini ham unga moslab borishga qaratilgan. Bu jarayonda o'zidagi ayrim kamchiliklardan voz kechib yangi odatlarni o'zlashtirib borgan. Axloqiy tushunchalarning tobora ustuvorlikka ega bo'lib borishi jarayonida odamlar o'rtasida umummajburiy talablarni yuzaga keltirdi. Bu kabi talablar muhitni shakllantiradi va jamiyat ehtiyojiga aylanadi. Talab va ehtiyojlar nimaga qaratilgani, nimani maqsad qilganiga ko'ra, turli xil shakl va mazmunga ega bo'lgan. Jamiyatdagi mavjud axloqiy qoidalarni buzgan odamlarni tanqid qilish, tanbeh berish, hatto sazoyi qilish ham qo'llangan. Bu orqali zararli illatlarning oldi olingan va uning ommalashuviga yo'l qo'yilmagan. Ma'naviy muhit talablari sog'lom qarashlarga asoslangan bo'lsa, ma'naviyatning rivojlanishi va boyishiga xizmat qilgan, aksincha bo'lsa uni tanazzuliga duch qilgan.

Ma'naviy muhit shaxs va jamiyatni davr talablariga moslab, tarbiyalab boradi va shu asnoda turli tahdid va hurujlardan saqlaydi. Masalan, tinch-ahil oilada tarbiya topgan bola uchun ota-onaning bir-biriga bo'lgan hurmati, yaqin qarindoshlarning o'zaro hurmatli munosabatlari odatiy hol. Bunday oila farzandlari barcha ijtimoiy munosabatlarda xushmuomala bo'lishga harakat qiladi. Ammo notinch oilada o'sgan bolalarda boshqalarga unchalik ishonmaslik, hadik, ba'zan qo'rs muomalalik xos. Ularning ijtimoiy aloqalari va faoliyat mazmuniga oilaviy muhit ziddiyatli ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ma'naviy muhit jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi tushuncha deb qarash mumkin. Chunki u tarraqiyotdagi har qanday ilg'or g'oyalarning yaratilishi va uning hayotiyiligini belgilab beradi. Muhit qancha bag'rikeng va holis bo'lsa u shunchalik darajada tez rivojlanib boradi. Muhit xox yaxshi va yomon tomonga bo'lmasin juda tezlik bilan o'zgarib qolmaydi. Uning talabi ham odatda bir xil ya'ni barqaror muhitni qaror toptirish. Ya'ni bir xillik yuzaga keltirishni maqsad qiladi. Ammo har doim ham mutlaq tenglik va bir

xillikka erishib bo'lamydi, chunki odamlarning yashash tarzi, qiziqishi, dunyoqarshi har xil. Shunga qaramasdan muhit barqarorlik sari intilaveradi. Muhit ta'siri ostida odamlar o'zlaridagi ayrim kamchilk va odatlardan voz kechib umumiy muhit talabi asosida o'zini moslaydi. Bu jarayonda u tarbiyalanib boradi, uning axloqiy qarashlarida, dunyoqarashi va baholash me'yorlarida o'sish sur'ati ko'rinadi.

Ma'naviy muhit ma'naviyatning mustaqil tarkibiy qismi hisoblanadi. U ma'naviyatga nisbatan kengroq tushuncha. Chunki unda butun jamiyat a'zolarining ma'naviylik darajasi mujassam bo'lib, umumiy xususiyatga ega hisoblanadi. Uning barqaror yoki beqarorlik holatini aniqlashda ko'pchilikka nisbat berilgan holda baholanadi. Shuning uchun ham ayrim guruhlarining buzg'unchi g'oyalari va harakatlari bu jarayonda hisobga olinmaydi. Ammo buni e'tiborsiz qoldirish kerak deganini ham bildirmaydi. Aynan muhit sog'lomligiga erishishda ko'zlangan maqasdalardan biri ham jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan g'oyaviy-siyosiy harakatlar faoliyatiga chek qo'yishdir. Muhitning cheklovchi funksiyasi uni bir xilda saqlab turish, egiluvchan bo'lib qolish kabi holatlardan saqlaydi, uning qatilyligini ta'minlaydi.

Bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakatga borib qolgan odam har doim ham tezda moslashib keta olmaydi. Bunga ko'plab sabablar keltirish mumkin masalan til bilmasligi, begonalar orasida o'zini yomon his qilish yoki dunyoqarashdagi farqlar buni keltirib chiqaradi. Bu kabilar ozmi-ko'pmi ta'sir ko'rsatadi. Ammo buni umumiy qilib muhitning ta'siri bilan ham izohlash mumkin. Muhojir ba'zi hayotiy qarashlaridan voz kechishga o'zini ayni joydagi muhit talablariga moslab boradi. Yo'qsa hayot faoliyatida turli qarshiliklarga duch keladi.

Muhit ma'naviyatning ijtimoiy vazifalarini to'liq bajarish uchun shart-sharoit yaratib beradi. Ma'naviyat muhit vositasida amaliyotga aylanadi. Shu asosda bu ikki tushuncha mushtaraklik kasb etadi. Ma'naviyat muhitning g'oyaviy-e'tiqodiy va aksiologik asosini tashkil etsa, muhit ma'naviyatning namoyon bo'lishi, faoliyat ko'rsatishidir. Muhit taraqqiyot taqdirini belgilab

beradi. Shunday ekan ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashitirish, uni turli tajovuzlar ta'siridan himoya qilish masalasi dolzarb bo'lib qolaveradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Erkayev. "Ma'naviyatshunoslik" 1-kitob T., "Ma'naviyat" nashriyoti., 2018 y.
2. A. Erkayev. "Ma'naviyatshunoslik" 2-kitob T., "Ma'naviyat" nashriyoti., 2018 y.
3. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi boqichga ko'taramiz (1-jild) T., "O'zbekiston" nashriyoti., 2017 y.